

HAMID OLIMJON IJODIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI

*Ashirmatova Nargiza Inombayevna,
Abdurashidova Iroda O‘ktam qizi
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi
o‘qituvchilari*

H.Olimjon hayotda va ijodda xalq baxshilariga, umuman, folklorga alohida mehr-muhabbat va samimiy hurmat bilan qaradi. Buni biz Fozil shoirga bag‘ishlangan “Kuychining xayoli”, Abdulla shoir Nurali o‘g‘liga atalgan “Do‘mbiraning maqtovi” she‘rlarida, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod”, “Ikki qizning hikoyasi” kabi ertak dostonlarida yaqqol ko‘ramiz. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, shoir folklor bilimdoni sifatida o‘z ijodida o‘zbek xalq ertaklari va dostonlariga xos bo‘lgan ko‘pgina xalqona uslublarni qo‘llaydi. Natijada har qanday kitobxon bunday asarlar folklorga xos bo‘lgan oddiy motiv yoki syujet, kuchli fantastika, ehtiros va lirizm ruhi bilan sug‘orilgan shoh asarlarga aylanganligini sezadi. Bulardan tashqari, shoirning “Shodiyona”, “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “Xat” va “Bo‘l omon”, “Qishloq qizi” kabi she‘rlari ham folklor ruhi bilan chuqur sug‘orilgan ajoyib asarlar sifatida adabiyotimiz sahifalaridan munosib joy oldi. Ularni o‘qiganda har bir she‘riyat shaydosi, yagona umumiy xususiyat xalqona ifoda usuli birlashib turganligiga guvoh bo‘ladi.

Hamid Olimjon “Zaynab va Omon”dagi

Kokillari uning tol-tol

Lablarida bitgan qora xol,

Bu dunyoga arziguday bor... Kabi liriknafas misralarni ”Alpomish” dagi Kokillaring eshilgandir tol-tol,
Har tolga bersa yetmas dunyo mol,
singari epik tasvirdan ijodiy foydalanganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunday misollarni shoir ijodidan juda ham ko‘plab keltirish mumkin. Xalq og‘zaki ijodiyotining yozma adabiyot vakillari ijodiga ta’siri turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

H.Olimjonning ”O‘zbekiston” she‘rida esa quyidagi misralar bor:

Qorli tog‘lar turar boshida,

Gul vodiylar yashnar qoshida.

Chor-atrofga yoyilgan gilam.

Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.

Chavandozlar bordir bu elda,

Bahor chog‘i pishqirgan selda.

Arg‘umoqlar qo‘shig‘i bordir,

Bu shundayin ajib diyordir.

Dalasida o‘smas tikonlar,

Cho‘llarida chopmas ilonlar,

Qush uchsa-da, kuymas qanoti,

Odam o‘tsa qurimas zoti.

Bunda bulbul kitob o‘qiydi,

Bunda kurtlar ipak to‘qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Kuychilari o‘qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.

Parchaga e‘tibor bilan nazar tashlansa, ta‘rifning ko‘pgina mushtarak tomonlarini anglab olish qiyin emas, jumladan, dostondagi ta‘rifda Xorazmning yoz-u qishlarining o‘ziga xos tarovati kuylansa, shoir misralarida diyorimizning ko‘klam fasli madh etiladi. Dostondagi elning qariyalari, qiz va yigitlari haqidagi ta‘rif she‘rda yanada aniqroq tarzda o‘z aksini topadi. Dostonda bedovlar, qushlar g‘urur bilan tasvirga olinsa, she‘rda ham arg‘umoqlar, bulbullar ta‘rifi yuksak ko‘tarinkilik bilan talqin etiladi. Dostonda hatto cho‘llarning bag‘rida bebaho boyliklar yashiringani kuylansa, she‘rda ham ushbu masalalarga asosiy e‘tibor qaratadi. Har ikkala she‘rning bag‘rida yashiringan yuqoridagi asosiy detallar ulardagi asosiy mundarijaning o‘zaro ancha yaqinligini har jihatdan isbotlaydi. Albatta, H.Olimjon she‘ridagi ta‘riflar keng qamrovli va zamonaviy bo‘lib, she‘r esa o‘zi yaratilgan davr bilan uzviy bog‘langan, badiiy barkamol asardir. Biroq bu she‘rning paydo bo‘lishida “Yusuf va Ahmad” dostonidagi Xorazm ta‘rifining muayyan ta‘siri bo‘lishi mumkin. Chunki H.Olimjon xonadonida ko‘plab baxshilar tez-tez bo‘lishib, Mulla Azim bilan suhbatlashib, dostonlar kuylaganlar, qissaxonlik qilganlar. H.Olimjon esa “Yusuf va Ahmad”ning qo‘lyozmasini o‘qigan bo‘lishi mumkin. Qolaversa, ushbu doston Fozil shoir repertuarida bo‘lganligi bizga ma‘lum. Binobarin, dostondagi el-yurt ta‘rifi H.Olimjonda O‘zbekiston ta‘rifi bilan aloqador fikrning tug‘ilishiga sababchi bo‘lib shoirning ilhom manbasi sifatida xizmat qilganligi, shubhasizdir.

Xullas, H.Olimjon bolalik chog‘laridanoq folklorga alohida mehr bilan qaragan bo‘lsa, umr bo‘yi xalq shoirlari bilan hamnafas, hamdard, hamkor va ijodiy aloqada bo‘ldi. Ularning dostonlaridan ijodiy ravishda katta mahorat bilan foydalana oldi. Bularning hammasi “Hamid Olimjon va folklor” mavzusining turli qirralarini tashkil etadi. Xalq og‘zaki badiiy ijodiyotiga xos mazmun va shakl komponentlaridan foydalanish yozma adabiyotni asosiy omillaridan biri. Zotan, iste‘dod xalq hayotidan, uning ma‘naviy-psixologik va milliy-mahalliy ruhidan ayri holda barkamol bo‘lolmaydi. Binobarin, “shoir bo‘lib tug‘ilish kerak bo‘lsa, u taqdirida xalqchil ham bo‘lib tug‘ilish kerak” (V.G. Belinskiy). Hamid Olimjon V.G. Belinskiy orzu qilgan shoirlardan edi. Uning shavq va sururga to‘la she‘riyati teran xalqchil hamdir. Shoirning badiiy ijodda xalqchilikning o‘zagini tashkil etuvchi folklorlarga murojaati masalasi o‘zbek adabiyotshunoslarining birtalay ishlaridan o‘rin olganligi ilmiy jamoatchilikka ma‘lum. Bu ishlarda shoirning xalq og‘zaki poetik ijodiyoti namunalariga murojaat etishida kelib chiqadigan umumiy prinsiplar aniqlangan va folklor H.Olimjon asarlariga xos xalqchilik xususiyatining markaziy nuqtasi ekanligi haqidagi xulosaga kelingan.

Bundan H.Olimjon she‘ri xalq termalariga taqliddan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Aytib o‘tilganidek, H.Olimjon o‘z oldiga qo‘ygan

g'oyaviy-estetik maqsaddan kelib chiqib, original mazmuni she'rxonga yetkazishda xalq termalarining shakl imkoniyatlaridan keng foydalana olgan.

Demak, Hamid Olimjon o'z ijodida, ayniqsa she'riyatida xalq tilining eng ta'sirchan formalarini topib, ulardan mahorat bilan foydalangan, faol ishlatmaydigan jonli til faktlarini estetik hodisaga aylantira bilgan.

H.Olimjon she'riyatida xalq og'zaki ijodidan foydalanish usullarini kuzatish jarayonida ularning yana bir tomoni ko'zga tashlanadi. Bu – folklorning eng uvoq ko'rinishlaridan bo'lgan, kichik janrlari bo'lmish maqol va matallardan foydalanishdir. Bu usul yuqorida ko'rib o'tilgan folklorona shakl elementlaridan yoki birorta motivdan foydalanishdan hiyla farq qiladi. Masalan, shoirning "baxt to'g'risida" she'rini olaylik. Xalq orasida "har kim o'z rizqini yer", "Har kim taqdir qilinganini oshar" kabi maqollar mavjud. Folklor xazinasidagi boshqa yuzlab maqollar singari bularda ham chuqur mazmun sodda va lo'nda ifodalangan. A.Oripov mana shu maqollar mazmunidan kelib chiqib "Dunyoni qizg'anma" she'rini yaratdi. Bizningcha, bundan yarim asr muqaddam "Baxt to'g'risida" she'rining yozilishiga ham maqollar mazmuni turtki bo'lishi mumkin. Negaki, H.Olimjon qalbida o'zining nurli toleyidan shodumonlik hislari to'lib-toshgan edi. Bu hislar, asosan, xalqning yaqin o'tmishidagi qora kunlari bilan bugungi baxtli taqdiri va porloq kelajagi haqidagi mushohadalar assotsiatsiyasidir.

Falsafiy mushohadalarning badiiy-estetik hodisaga aylanishi, muayyan mantiq ipiga tuzilishi uchun esa qandaydir sabab kerak bo'ladi. "Baxt to'g'risida" she'ri qaynoq poetik ehtirolarning yuqoridagi maqollar mazmuni ta'sirida tugal ifodasini topgan ko'rinishidir.

Demak, H.Olimjon lirik asarlarida folklorga murojaat etish, asosan, xalqona poetik shakllar, folklor asarlaridan o'zlashtirilgan motivlar, shuningdek, maqol va matallardan foydalanish orqali amalga oshgan ekan. Zotan, Homil Yoqubovdek ustoz "shoir lirikasiga folklor obrazlarning urug'larini sochib, avaylab parvarish qilib yangi zaminda qaytadan o'stirdi", deb yozganida to'la haq edi, deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, folklor H.Olimjon lirikasiga teran falsafiylik, jo'shqin optimizm va jozibador o'ynoqilik baxsh etuvchi badiiy fakt bo'lib xizmat qilgan. Novator shoirning lirik she'rlariga xos ana shu an'anani biz bugungi kunda o'zbek she'riyatining E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, H.Xudoyberdiyeva, U.Azim va boshqa vakillari ijodida yana bir bor kuzatamiz. Demak, H.Olimjon o'zbek she'riyatining tongotarida asriy og'zaki ijod namunalari bilan omuxtalashtirishda muhim hissa qo'shgan, bunday ijodiy jarayon hozirgi she'riyatimizda ham o'zgacha uslubda hamon davom etmoqda, deyish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov O. Talant va mas'uliyat. "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 7-avgust, 1962-yil.
2. Azimov Sarvar. Hamid Olimjon abadiyati. T.: 1967.
3. Mamajonov S. Shoir dunyosi. T.: Adabiyot va san'at, 1974, 224 b.
4. Mamajonov S. Teranlik T.: 1987,91-b.

5. Karimov N. Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar, T.: 1985. 248
6. Eshonqulova, S. (2020). Bayramxon va Nodirabegim she'riyatida Xizr payg'ambar obrazi talqinlari. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(85)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7321
7. Eshonqulova, S. (2020). An'anaviy obrazlar genezi (Nodira ijodi misolida). *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(85)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7333
8. Eshonqulova, S. (2020). Fazilatleri olamlarga ibrat Ustozim!. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(85)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7334
9. Eshonqulova, S. (2020). Nodira ijodida Sulaymon obrazi tasviri . *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(85)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7346
10. Turopova, P. (2020). Ona Vatanga mehrim. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5428
11. Turopova, P. (2020). She'riyat va sadoqat malikasi. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5430
12. Turopova, P. (2020). Sehrli dunyoga sirli sayohat. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5431
13. Turopova, P. (2020). Ma'naviyat–ma'rifat kaliti. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5429
14. Turopova, P. (2020). Qaytar dunyo. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5433
15. Turopova, P. (2020). Alisher Navoiyning xayolot dunyosi. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(43)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5434
16. Turopova, P. (2020). Adabiyotda ayol madhi. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5435
17. Turopova, P. (2020). Alisher Navoiy “Xamsa”sida fantastika ko'rinishlari. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5437
18. Soatova, N. (2020). Satirachilikda an'ana va izdoshlik. *Архив Научных Публикаций JSPI, 22(1)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2094
19. Soatova, N. (2020). Sakkokiy hayoti va ijodini o'rganilishi haqida. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(45)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5366

20. Soatova, N. (2020). “Shuhrat hayoti va ijodi” mavzusiga doir texnologik xarita. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(09), 3. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2673
21. Soatova, N. (2020). Adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(09), 5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2677
22. Ражабова М. Б. ГЁТЕ И ВОСТОК //Контактная информация Организационного комитета конференции. – С. 54.
23. Раджабова М. Б. STYLISTIC REFINEMENTS OF PHRASES IN ALISHER NAVOI’S LYRICS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 6. – С. 183-187.
24. Rajabova M. ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
1. Rajabova M. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЁТИДА ТЕЛБАЛИКНИНГ МОТИВЛАШТИРИЛИШИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
 2. Rajabova M. ХАЛҚ МАЙДОН КУЛГИ САНЪАТИ БЕЛГИЛАРИНИНГ НАВОИЙ ИЖОДИДАГИ КЎРИНИШЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
 - 3.